




ZULFIYA QUROLBOY QIZINING "MOMO HAVO" HIKOYASIDA INSON PSIXOLOGIK PORTRETI

Nabijonova Rohilaxon Muxiddin qizi

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani 27-maktabning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14703071>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-yanvar 2025 yil
Ma'qullandi: 15-yanvar 2025 yil
Nashr qilindi: 20-yanvar 2025 yil
psixologik portret, ma'naviy inqiroz, boylik va shaxsiy manfaat, manipulyatsiya, ruhiy holat, mifologik tasvir, ichki qarama-qarshilik.

ABSTRACT

Zulfiya Qurulboy qizining "Momo Havo" hikoyasida inson ruhiyati, ma'naviy inqiroz va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan. Asarda, Nafosat va doktor Davlatning xarakterlari orqali boylik va shaxsiy manfaatlarga intilishning noxush oqibatlari ko'rsatiladi. Hikoyaning nomi orqali insoniyatning ona siymosi va mehr-muhabbatning ramzi Momo Havoning mifologik tasviri mavjud. Nafosat va Akbar o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar, Nafosatning manipulyativ xulq-atvori va Akbarning ruhiy holati o'quvchiga chuqur psixologik tahlilni taqdim etadi. Asarda, personajlarning xarakterlari orqali jahon madaniyatida moddiy boylikka intilishning yovuz ta'siri ko'rsatilgan.

Zamonaviy o'zbek nasrida faol ijod qilayotgan adiblardan biri Zulfiya Qurulboy qizidir. Uning "Momo Havo" nomli hikoyasida bozordagi iqtisodiy sharoitlar va ularning kishilarning ma'naviyatiga ta'siri tasvirlanadi. Hikoyada boylik va shaxsiy manfaatlarni orzu qilgan Nafosat va uning sherigi doktor Davlatning xarakteri muallif tomonidan chuqur va mahorat bilan ochilgan.

Hikoya nomiga to'xtaladigan bo'lsak, asar "Momo Havo" deb ataladi, bu insoniyatning ona siymosi, mehr-muhabbatning va avlodlar davomiyligining ramzi bo'lgan bir muhtaram shaxsni anglatadi. Shuningdek, hikoya nomi orqali Momo Havoning jannatdan quvilgan ilk odam, erkak va ayol haqidagi mifologik tushunchalarga ham ishora qilinadi.

Aslida, hikoyadagi Nafosatga "Momo Havo" nomini Akbar beradi. Nafosat, Akbarning nuqtai nazarida, "Momo Havo" uni yerda loyga belanib yotgan joydan ko'targan, ammo keyinchalik o'z maqsadiga erishgach, Akbarni o'ziga jalb qilib, uning jonini sug'urib oladi. Hayotda yo'lini yo'qotib, ichkilikka berilgan Akbarni yomg'irda yiqilgan joyidan olib, uyigacha kuzatib, mehribon so'zlar va jilmayishlar bilan hayotga qaytarib, turmushga chiqadi, ammo keyinchalik, uni ichki hiylalar bilan o'ldiradi. Hikoya, moddiy boylikni orzu qilgan odamlar orasida nafaqat shaxsiy manfaatlarning ustunligi, balki bunday holatlarning jahon madaniyatida yovvoyi muhit yaratishi mumkinligini ko'rsatadi.

Akbar, jamiyatdagi o'zgarishlarga qarshi kurasha olmay, ichkilikka beriladi, uning yaqinlari undan yuz o'giradi, oilasida va shaxsiy hayotida katta sinovlar bilan yuzlashadi. Nafosat va

Davlat, Akbarni shunday holatda ko'rib, uni o'z maqsadlariga erishish uchun manipulyatsiya qilishga harakat qilishadi. Nafosat, Akbarga turmushga chiqishga qaror qilib, o'zini yaxshi xotin sifatida ko'rsatib, uni o'ziga jalb qiladi. Biroq, uning haqiqiy niyati, Akbarni o'z qo'lidano kelgancha boshqarib, oxir-oqibat uning hayotini tamomlaydi.

Mazkur asar tilida personajlarning ruhiyatini ochishdagi mahorat juda aniq seziladi. Asar boshida yomg'irning yog'ishi va Akbar yurgan yo'lakning noaniqligi va notekisligi bir necha bor qayd etiladi. Masalan, "Yomg'ir uch kundan buyon tinimsiz yog'ardi. Asfalt yo'lga aylangan tuproq yo'lakda bilch-bilch loy to'plangan, beton ariqchalar loyqa suvga to'lgan, olovrang yaproqlar esa oyoq ostida ezilib, loyga aralashgan, natijada yo'l sirpanchiq bo'lib qolgandi" (1.255). Bu tasvirlar Akbarning ruhiy holatini ifodalaydi va yozuvchi ruhiy parallelizm usulini qo'llaydi. Asar boshida «yo'l» va «yo'lak» so'zlarining ko'p marta takrorlanishi va ularning notekisligiga urg'u berilishi Akbarning hayotidagi murakkablikni, uning yo'li to'g'risidagi xabarni ko'rsatadi.

Yozuvchi Akbarning yashil devorni paypaslab ketayotganini, qo'rqib yurayotganini, bexosdan yiqilib tushishini va keyin o'rnidan turmoqchi bo'lganda, muzday yerdan qizib yotgan joyiga qulaylashishini tasvirlaydi. So'ngra, "Uyiga yetishiga ellik qadamcha qolgandi" (1.255) degan izoh keltiriladi. Bu nafaqat afsus, balki Akbarning kelajakdagi xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarning yaqinligini bildirishga yordam beradi. Yozuvchi o'quvchiga, Akbarning hayotidagi qiyinchiliklardan chiqish uchun hali imkoni borligini ta'kidlaydi.

Nafosat obrazining tasvirida ishlatilgan so'zlar va iboralar asar tilining ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ayolning jilmayishi va Akbarning savollariga javoblari o'quvchining qalbini ilqlik bilan to'ldiradi. Nafosat dastlabki portretida shunday tasvirlanadi: "Kalta qora plashi o'zi uchun mos edi, ko'hlik juvon qo'lini xiyol oldinga uzatib, soyabonini tutib, Akbarni yomg'irdan to'sib turardi. - Keling, yordam beraman... - juvon qo'lini uzatdi" (1.256). Bu obrazda Akbarni o'z uyida mehmon kabi his qilishi, Nafosat esa unga mehmon bo'lgandek qarashi o'quvchini qiziqtiradi.

Hikoyaning ba'zi qismida Nafosatning yordamga muhtoj bo'lgan begona erkakka yordam berishi, uni uyiga kuzatib borishi va choy qo'yishi kabi harakatlari bir qarashda mehribon bo'lib ko'rinsa-da, ichki ma'noda sirni ham anglatadi. Yozuvchi, bu tafsilotlar orqali, Nafosatning tashqi xulq-atvori ostida yashirin maqsadlari borligini namoyon etadi.

Ertasi kuni ko'chada yana uchrashishlari, keyingi kunlarda uchrashuvlar davom etishi, ayolning hayoti va «dardi» haqida gapirishi va uchinchi marta uchrashganda turmush qurish haqidagi taklifni qabul qilishi, muddatni so'rashi, yigitcha bir hafta yetadimi, deb so'rashi va unga «vuy... namuncha?» deb javob berishi Nafosat obraziga qarshi tasavvurlarni uyg'otadi (1.260). Yozuvchi personajlarning so'zlari va harakatlari orqali ularning asl tabiatini ochib boradi.

Birinchi uchrashuvda Nafosat Akbarning ichganini bilmagan sodda ayol sifatida ko'rinadi. Akbar, Nafosat haqidagi fikrini o'zgartirganida, ayol "Men buni sezgandim" deb javob beradi, bu esa Akbarning ichki dunyosini ag'darib yuboradi. "Bilgandim... - shikasta, past ovozda aytilgan bu so'z Akbarning qulog'iga piyola jarangidek yoqimli eshitildi. Lekin u quloqlariga ishonmadi. 'Quloqlarim meni aldayapti,' deb o'yladi. Yuzini to'sib turgan kaftlarini tushirishga ham urinmadi. O'jizlik qildi" (1.263). Akbarning o'z hayotidan va ahvolidan uyalishi, ayolning oldida vijdoni uyg'onib, go'yo kimdir unga shapaloq tortayotgandek yuzini to'sishi uning ichki dunyosida hali ham g'urur va uyat borligini ko'rsatadi. Akbarning or-nomusi va g'ururi yuqori ekanligi boshqa joylarda ham ta'kidlangan.

Shu yerda esa Nafosatning rangi oqaradi, chunki u o'zining yomon niyati oshkor bo'lishidan qo'rqadi. Akbar faqat o'zining kutgan fazilatlarini ko'rayotgan bo'lsa ham, u buni sezmaydi. Natijada, Akbar va Nafosatning ichki dunyosidagi o'zaro qarama-qarshiliklarga ba'zi ishora qilingan. Biroq, Nafosat Akbarni o'ldirib, bayram va boshqa marosimlarni o'tkazib, qizini ham o'ldirish niyatini ochmasdan uning asl tabiatini ko'rsatmaydi.

Xulosa. Aslida, insoniyatning asosiy baxti yuqori darajada axloqiy-ma'naviy mukammallikka erishish va shu orqali oliy darajadagi ruh, qalb va idrok erkinligini kashf etishdir. Biroq, Zulfiya Qurulboy qizining "Momo Havo" hikoyasidagi personajlar boshqacha yo'l tutadilar. Iqtidorli adiba qalami orqali ularning insonga xos bo'lmagan qiyofalari, shaytoniy havoislari orqali amalga oshirgan tubanliklari yuqori darajada mahorat bilan aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зулфия Қуролбой қизи. Қадимий қўшиқ: ҳикоялар. – Т.: О'zbekiston, 2012. – Б. 255-274.
2. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Kamalak, 2016. – 464 б.
3. Кант, Иммануил. Из лекций по этике / Этическая мысль. – М.: Политиздат, 1990. – 480

